

UDK: 811.512.133-2

APPLICATION OF CONTRARY MEANING UNITS IN USMAN AZIM'S POETRY

USMON AZIM SHE'RIYATIDA ZID MA'NOLI BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI

ПРИМЕНЕНИЕ ЕДИНИЦ ПРОТИВОПОЛОЖНОГО ЗНАЧЕНИЯ В ПОЭЗИИ УСМАНА АЗИМА

Egamov Umidjon Shavkatovich

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze.

E-mail: umidjon86egamov@gmail.com

Abstract. The article analyzes the methodological features of the contradictory meaning units used in the poetry of Osman Azim from linguopoietic Jihan. The units with opposite meanings (antithesis) used in the poet's poetry provided melodiousness, increased impressionability, imposed a figurative meaning, emphasized a certain unity of speech, ensured the connection between stanzas or clauses, increased the expressiveness of the image, formed the harmony of content and form. Osman Azim made very good use of units with contrary meanings. In particular, antithesis has endowed the poet's poetry with an amazing fascination. The article shows the skill of the poet to use these tools.

Key words: antonym, antithesis, mutobaqa, tibatq, applied, muttazad, ittizod takofu, contradiction, countering, contrar, komplementar

Аннотация. В статье анализируются стилистические особенности единиц с противоположным значением, используемых в поэзии Османа Азима с точки зрения лингвопоэтики. Контрастные смысловые единицы (антитезы), применяемые в поэзии поэта, обеспечивают мелодичность, повышают выразительность, придают образный смысл, подчеркивают определенную единицу речи, обеспечивают связь между строками или строфами, повышают выразительность образа, создают гармонию содержания и формы. Осман Азим очень эффективно использует единицы с противоположным значением. В частности, антитеза наделяет поэзию поэта необыкновенной красотой. В статье показано мастерство поэта в использовании данных средств.

Ключевые слова: антоним, антитеза, мутобака, тибок, тадбик, муттазод, иттизод такофу, сопоставление, проивопоставление, контрар, комплементар.

Kirish. Usmon Azim – XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri. U o'z uslubiga ega bo'lgan adib. Shoir she'riyati xalq og'zaki ijodiga hamohang she'riyat bo'lib, takrorlarga boyligi, badiiy san'atlar va uslubiy vositalarning keng qo'llanganligi bilan farqlanib turadi. Har bir badiiy tasviriy vositadan yozuvchi yoki shoir o'z ijodida unumli foydalanadi. Jumladan zid ma'noli birliklar ham shoir she'riyatida yetakchi o'rinnarni egallaydi. Zid ma'noli birliklar badiiy asarda, xususan, she'riyatda ko'p qo'llanadigan uslubiy vositalardan biridir. Usmon Azim she'riyatida ularning o'z o'rnida qo'llanilishi she'rlarning jozibadorligini ta'minlagan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida Usmon Azimning barcha she'riy to'plamlari, muallifning shaxsiy arxividagi shoir ijodiga doir manbalar, asosan, 1996-yil nashr etilgan saylanmasi olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funksional tahlil usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. "Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazoddir. Bu san'at yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takofu deb ham ataladi. Bu san'atda, badi'shunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi." [1]. Yevropada bu san'atni "antiteza" deb yuritishadi. Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi.

Poetik nutqning emotsional-ekspressivligini kuchaytiruvchi vositalardan biri so'z ma'nosidagi ijobiy va salbiy emotsional ottenkaning mavjudlik darajasi. Shu nuqtai nazardan poetizmlarni poetik nutq emotsionalligini ta'minlovchi muhim leksik vositalar hisoblash mumkin. Poetizmlarning ko'pchiligida ijobiy emotsional ottenka mavjud bo'lgani kabi salbiy emotsional ottenkali poetizmlar kam [2].

Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashning qulay vositalaridan biri. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. "Shoir uchun juda zarur bo'lgan san'atlardan biri tazod. Bu san'at yana *mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takofu* deb ham ataladi. Bu san'atda, adabiyotshunoslarning aytishicha, zid ma'noli so'zlardan foydalaniladi". [1] Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan ishlarda *zidlantirish, qarshilantirish* atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi [2].

Usmon Azim ijodida boshqa lingvopoetik vositalar qatori antitezadan ham unumli foydalanilgan. Antiteza grekcha soʻz boʻlib, qarama-qarshi qoʻyish degan maʼnoni bildiradi.

Antiteza poetik sintaksisning bir koʻrinishi hisoblanadi, u nutqda ifodalilikni kuchaytirish uchun logik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarni, fikr obraz, predmetlarni va shaxslar xarakterlarini qiyoslash yoki birgina predmet yoki hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlashdir. Antiteza orqali ifodalangan maʼnoni tushinishda bir-biriga keskin qarama-qarshi hodisalarga nisbatan bizning reaksiyamizning ham ahamiyati bor. Masalan, issiq-sovuq, baland-past, ulugʻ va pastkash, jasur va qoʻrqoq, saxiy va xasis, haqiqat va yolgʻon, tun va kun, yorugʻ va qorongʻi kabi antonimik soʻzlar har biri oʻziga xos reaksiya uygʻotadi. Maʼlum hodisa yoki hodisalar tasvirlanayotganda ularni ana shu kabi antonim soʻzlar vositasida birini ikkinchisiga qarama-qarshi qoʻyib qiyoslanadi va shoir ularga nisbatan oʻzining munosabatini bildiradi yoki bir hodisani turli tomondan tasvirlash orqali oʻquvchida unga ijobiy yoki salbiy munosabat uygʻotadi” [4].

Antonimlar zid tushunchalarni ifodalab, oʻqirman eʼtiborini oʻziga jalb etishda badiiy adabiyot tilining oʻziga xosligini ifodalashda muhim oʻrin tutadi. Xususan, kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning taʼsirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi.

Masalan: “Zelixon Elchidan qasos haqidagi gaplarni birinchi marta eshitganda sergaklandi. U mushtdek yurakni qoyadek dard bosib turibdi, deb yursa, bu vujudda vulqon kuch toʻplayotgan ekan...” (T.Malik) [2] Bu jihatdan yondashilganda ham Usmon Azim oʻz sheʼrlarida kontekstual antonimlar, turkumlararo antonimlarni mohirona qoʻllab, oʻziga xos original uslub yaratgan:

R.Shukurovning taʼkidlashicha, soʻzlarning antonimligini koʻrsatuvchi belgilardan biri antonimik juftlik hosil qiluvchi komponentlar orasida oraliq tushunchalarning mavjud boʻlishi. Olim bunday oraliq tushunchalarni mantiqiy markaz deb ataydi. Mantiqiy markaz soʻzlarning antonim boʻlish-boʻlmasligini aniqlashda muhim omil boʻlib xizmat qilishi mumkin. Professor S.Usmonov bunday oraliq tushunchalarni faqat toʻla antonimlarga xos deb hisoblaydi. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” darsligida bir qator mualliflar tomonidan antonim soʻzlar borasidagi bu fikrlar ancha rivojlantirilgan. Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etishi koʻrsatilgan:

a) kontrar qarama-qarshilik;

b) komplementar qarama-qarshilik [5]

Usmon Azim sheʼrlarida qarama-qarshilikning bu ikki turi ham mavjud, ulardan badiiy maqsadlarda oʻrinli foydalanilgan. Shoir sheʼrlarida *erta-kech*, *kun-tun*, *tun-tong*, *kecha-kunduz*, *yoz-qish* antonimlari payt, vaqt va mavsumni anglatish asnosida poetik tasvirga hissiylik bagʻishlashga xizmat qiladi:

Tosh boʻlmagin-oqib turgin,

Goh-goh oʻzni oʻqib turgin.

[6]

Bunda shoir “tosh” soʻzining “qattqlik” maʼnosi bilan, “oqmoq” soʻzidagi “yumshoqlik” maʼnosi oʻrtasidagi zidlik asosida fikr ifodalaydi va ot bilan feʼl soʻz turkumi oʻrtasida antonimlik hosil boʻladi. Demak, poetik antonimiya turli soʻz turkumlari oʻrtasida ham maʼlum maʼnolar asosida yuzaga kelishi mumkin.

Tong titraydi kech kuzakning quchogʻida,

Yulduzlarni oʻchirmoqda gulgun shafaq.

Jonim, qalbim sheʼriyatning pichogʻida...

Zamin— tilsim, osmon— tilsim... sheʼr— beshafqat!

[6].

Keltirilgan misolda “Zamin” va “osmon” soʻzlari antonim soʻzlar sifatida berilgan. “Zamin” soʻzi fors tilidan olingan boʻlib, “yer” maʼnosini anglatadi. Shoir “yer” soʻzining forscha maʼnosini qoʻllab sheʼrga oʻzgacha bir fusunkorlik baxsh etadi.

Raqqosa! Xirom qil otgunicha tong,

Soʻng uxlab olarsan kelganida shom

.....Raqqosa! Davrada ildam-ildam suz!..

Nega nozing — olov, koʻzlaring — naq muz!

[6]

Keltirilgan misolda “tong” soʻzi “shom” soʻziga antonim boʻlsa, “olov” soʻzi esa “muz” soʻziga antonim boʻlib keladi. Tong - kun chiqar payt, subhidam, shom – quyosh botib qorongʻulik tushadigan payt. Sheʼrda yuqoridagi ikki holatni zidlantirish orqali shoir poetik nutqqa yanada zeb beradi.

Berilgan parchalardagi *erta-kech*, *kun-tun*, *tun-tong*, *kecha-kunduz*, *tong-shom* antonimlari komplementar, *yoz-qish* antonimi esa kontrar qarama-qarshilikni yuzaga keltirgan.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, yaʼni qarama-qarshilikka oʻsib borishi natijasida birinchi aʼzo bilan oxirgi aʼzoning antonimlashuvi [5]. Masalan, *yoz-qish*da *qish* – «yilning eng sovuq fasli», *yoz* – «yilning eng issiq fasli». Bular orasida bahor va kuz fasllari borki, sovuq va issiqlikda neytrallik kasb etadi. Bahor yo kuz leksemasida *yoz-qish* antonimligi soʻnadi.

Usmon Azim sheʼriyatida *Yer-koʻk*, *yer-osmon*, *past-baland* antonimlari shoir sheʼrlarida tomon zidligini ifoda etishga xizmat qilgan:

Zamin bilan osmon-senu menman,

Sahar bilan oqshom-senu menman.

Yeru osmon aro bir ishq bordir-

Ishqdan bunyod-Xijron senu menman. [6]

Zamin bilan osmon (borliq), sahar bilan oqshom (kunning butunligi), yeru osmon ma'lum ma'noda zidlik munosabatini ifodalaydi.

Antonimlikni ma'nodan anglash poetik fikrlash va o'quvchi dunyoqarashini yanada oshirishga, yuksalishi olib keladi. Yuqorida lirik qahramonning nozi olovga, ko'zlari esa muzga mengzalayapti. She'riyatda satrlararo antonimlik ta'sirchan poetik nutq yaratish omilidir. Bunda shoir bir necha holat, voqeyilikni bir holat, voqeyilik bilan qiyoslab, tenglab, ularni o'zaro zidlash natijasida bir holatni ikkinchisidan ustun yoki ortiq ekanligini e'tirof etadi.

Qahraton o'ldirsa-muzlik lahzadir,

Bahor telba etsa-gullik lahzadir.

Yoz faqat bahorga qullik lahzadir,

O, sening ishqingda o'lmoq cheksizdir.... [6]

Shoir she'riyatida shu bilan birgalikda antonimik juftlikni yonma-yon qo'llash orqali "umumiylik" semasiga ega bo'lgan yangi so'z hosil qilishga ham erishilgan:

Bog'im ketdi-qolgan ko'nglim yoboni,

Oldida qum, ortidadir dovoni,

Kelayotgan o'zgalarning davroni-

To'xta-ya, to'xtagin, umrim karvoni. [6]

Baxt-umr karvoni haqidagi falsafiy she'rda Usmon Azim antonimlaridan keng foydalanadi:

"bog'-yobon", "ketmoq-qolmoq", "oldi-orti", "qum-davon". Bunda "bog'" va "yobon" so'zlari yaxshilik, "ketmoq" va "kelmoq" xarakter, "oldi-orti" o'rin ma'nosida o'zaro zidlikni ifodalaydi. "Qum" va "davon" so'zlari esa "qum"-sahro unsuri, "davon" yashillik ma'nosida muayyan semada zidlikni bildiradi.

Ayni paytda buning ustiga yana she'rda juft antonim umumlashma ma'noni ifodalasa ("G'am selini kun-tun kechib o'tding sen") ba'zi antonimlar birinchi komponent antonimlarning izohi vazifasini bajargan: "Ketgan-oftob, qolgan-mitti chiroqdir". Bu misrada shoir zidlikni qiyoslash orqali ifodalaydi: oftob va mitti chiroq, ketgan va qolgan sifat-doshning otlashgan shakli bo'lib, obyektlar o'rtasidagi farq (zidlik) harakat ma'nosida yuzaga kelgan.

Semantik ma'nosiga ko'ra bir-biriga yaqinlashmaydigan birliklarning matnda baqamti kelib, favqulotda emosional-ekspressiv ottenka hosil qilishidan [7] yuzaga keluvchi oksyumoronlar ham poetik nutqda muhim ahamiyatga ega.

Siz — qimmatbahosiz,

Men — arzon, arzon.

Sizga balki faqat yuragim arzir.

Sizdan so'ramayman haqiga osmon,

Faqat osmon kabi yuksaling, axir! [6]

Keltirilgan parchada zidlantirish "siz" va "men" olmoshlari vositasida hosil qilingan. Bunda muallif o'zi va nutq qaratilgan shaxs, ya'ni lirik qahramonni o'zaro munosabatlarning ikki tarafi sifatida tasvirlamoqda. Ayniqsa, tinglovchining qimmatbaho deb, o'zini esa arzon deb baholashi she'rda ifodalangan mantiqiy zidlikni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

She'rdagi fikrlar o'zaro zidlik asosiga qurilgan bo'lsa-da, unda muallifning nutq qaratilgan shaxsga bo'lgan ijobiy munosabati yashirin tarzda aks etgan. She'rda muallifning o'zini past tutishi va tinglovchini ulug'lashi ham shundan dalolat berib turibdi. Quyidagi she'rda tun va kun tushunchalari o'zaro zidlikda tasvirlanadi. Kun tushunchasida shoirning ijobiy, tun tushunchasida esa salbiy deb hisoblagan tasavvurlari mujassamlashgan:

Kechalari yurak sanchadi,

Tutunlarga to'ladi boshim.

Rutubatli tunni yanchgani,

Ruhimda bir porla, quyoshim.

Kunduzlarim manim — lahzalik.

Tunim — uzun. Uzun. Beadad [6]

Shoirning "Rivojlanish" she'rida tabiat bilan bog'liq tushunchalar o'zaro zid munosabatda tasvirlanadi. She'rda poetik tasvir tong va shom tushunchalarini o'zaro zid qo'yib tasvirlash orqali amalga oshirilgan:

Tunni tong o'ldirdi,

Tongni shom o'ldirdi.

Shomni bo'g'di tun...

Nima uchun?

Nima uchun,

Shomning qo'lli qon...

Tongning qo'lli qon...

Bo'yo'g'i bir qadam qo'ydingmi,

Beshafqat zamon? [6]

Tilimizda soʻzlarning oʻzaro lugʻaviy jihatdan anglatgan maʼnosiga asoslanib yoz va qish faslini zidlik munosabatiga kiritish poetik matnlarda koʻp kuzatiladi. Dastlabki namunalarini M.Qoshgʻariyning yoz bilan qish munozarasida uchratishimiz mumkin. Usmon Azim esa bahor va kuz faslini antiteza sifatida qoʻllab tasvirning oʻziga xos koʻrinishini yuzaga keltirgan:

*Bahorda koʻkarib, kuzda sargʻayib,
Sukunatu qorga oʻranib qishda,
Gʻoʻra sheʼrlarimga boqdi mungʻayib...
Xullas, sodiq boʻldi har ezgu ishda* [6]

Sheʼrda tasvirlangan bahorni hayotning, ijodning boshlanishi, kuzni yesa buning aksi sifatida tushunish mumkin. Soʻzlarning oʻzaro zidlik hosil qilishi bevosita matn bilan bogʻliq.

Maʼlumki, son soʻz turkumi orasida antonimlik munosabati mavjud emas. Ammo yuqoridagi baytda *bir soni koʻp* ravishi bilan kontekstual antonimlik hosil qilgan. Bu zidlik “kam-koʻp” munosabati asosida hosil boʻlgan.

Kontekstual antonimlar soʻzlashuvchining nutqdan foydalanish qobiliyatiga bogʻliq holda nutq jarayonida paydo boʻladi. Ular uchun muayyan qolip boʻlmay, tez-tez oʻzgarib turadi. Shuning uchun ham kontekstual antonimlar ilmiy-texnik va rasmiy nutqda emas, balki asosan poeziyada, publisistikada va ogʻzaki nutqda ishlatiladi.

Xulosa. Fikr ifodalash jarayonida qoʻllaniladigan leksik vositalar poetik fikrning reallashishini taʼminlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ijodkor asarda aytilmoqchi boʻlgan fikrni butun maʼno nozikliklari bilan ifodalay oladigan soʻz yoki soʻz birikmalarini tanlaydi. Soʻz – nutqda fikrni ifodalovchi material. Shuning uchun antonimlarning matnda leksik, stilistik va grammatik maʼno ifodalash darajasi uning nutqda qanchalik ahamiyatli ekanligini belgilaydi. U badiiy yaratilgan emosionallik, obrazlilik va taʼsirchanligini oshiradi. Buning yorqin namunasini yuqorida keltirilgan misollar ham isbotlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustmov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1976. 64-b.
2. Umurkulov B. Poetik nutq leksikasi. –Toshkent: Fan, 1990. -B.34.
3. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007. – B.151.
4. Qoʻngʻurov R. Tanlangan asarlar. – Samarqand: SamDU, 2008, 386-bet.
5. Sayfullayeva R va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. –B.153.
6. Usmon Azim “Saylanma” sharq -matbaa konserni T:-1995 y
7. Karimov S.A. Oʻzbek tilining badiiy uslubi. f.f.d. dissertasiyasi avtoreferati T. 1993, B.38

References:

1. Rustmov A. Navoi's artistic skills. -T: G. Gulyam Literature and Art Publishing House, 1976. p. 64.
2. Umurkulov B. Poetic speech lexicon. -Tashkent: Science, 1990. -B.34.
3. Yoldoshev M. Basics of literary text and its linguopoetic analysis. - Tashkent, 2007. - B.151.
4. Kongurov R. Selected works. - Samarkand: SamDU, 2008, p. 386.
5. Sayfullayeva R and others. Modern Uzbek literary language. - Tashkent: Science and Technology, 2010. -B.153.
6. Usman Azim "Saylanma" oriental printing concern T:-1995
7. Karimov S.A. Artistic style of the Uzbek language. f.f.d. dissertation abstract T. 1993, B.38

Muallif:

Egamov Umidjon Shavkatovich - GulDU Oʻzbek tilshunosligi kafedrasida oʻqituvchisi.